

Farg‘ona transport va servis texnikumi, axborot texnologiyaklari va energetika kafedrasi mudir, katta o‘qituvchi Nargiz Alimova taqrizi ostida

M.Sayidolimova
Farg‘ona transport va servis texnikumi, axborot texnologiyaklari va energetika kafedrasi o‘qituvchi
m.sayidolimova@gmail.com

CCC+ KLASLAR BILAN ISHLASH. KLASLARDA VORISLIK

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan va ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanga IT sohasi bo‘yicha e’lon qilingan maqolalar hamda qilingan ishlar tahlil etilgan. Xususan CCC+ klasslar bilan ishlash va vorisiylikka e’tibоq qaratilgan.

Kalit so‘lar: Dasturlash tili, klasslar, CCC+, vorislik klaslarda, programma, ta’midot, C++ tili.

РАБОТА С CCC+ КЛАССАМИ. НАСЛЕДОВАНИЕ В КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье проанализированы опубликованные статьи и проделанная работа в сфере ИТ, которая в настоящее время развивается и становится неотъемлемой частью нашей общественной жизни. В частности, основное внимание уделяется работе с классами CCC+ и наследованию.

Ключевые слова: Язык программирования, классы, CCC+, наследование классов, программное обеспечение, программное обеспечение, язык CRAM.

WORK WITH CCC+ CLASSES. SUCCESSION IN CLASSES

Annotation: This article analyzes the published articles and the work done in the field of IT to become an integral part of our currently developing and social life. In particular, the focus is on working with CCC+ classes and succession.

Key words: Programming language, classes, CCC+, in successor classes, software, provisioning, C++ language.


Ma’lumki, programma mashina kodlarining qandaydir ketma-ketligi bo‘lib, aniq bir hisoblash vositasini amal qilishini boshqaradi. Programma ta’midotini yaratish jarayonini osonlash-tirish uchun yuzlab programmalash tillari yaratilgan. Barcha programmalash tillarini ikki toifaga ajratish mumkin:

- quiyi darajadagi programmalash tillari;
- yuqori darajadagi programmalash tillari.

C++ tilida so‘z deb bir nechta belgilar ketma-ketligi tushuniladi. Xizmatchi so‘z deb C++ tilidagi standart nom tushuniladi. Bu maxsus ma’noni anglatadi va uni ma’lumotlarga berib bo‘lmaydi.

C++ dasturlash tili C tiliga asoslangan. C esa o‘z navbatida B va BCPL tillaridan kelib chiqqan. BCPL 1967 yilda Martin Richards tomonidan tuzilgan va operatsion sistemalarni yozish uchun mo‘ljallangan edi. C++ tilini 80-yillarda AT&T Bell Labs korxonasi ishchisi Byarnom Strastrup

tuzgan. Avtorning aytishicha, bu tilni tuzishda u hech qanday qog‘ozlarni qoralamagan va hamma ishni yo‘l yo‘lakay, ketma-ketlikda tuzib chiqqan. Uning asosiy maqsadi, o‘zi va do’stlari uchun qulay dasturlash tili yaratishdan iborat edi. C++ dasturlash tilining asosi C hisoblanadi va shu tilni(C) misolida C++ tilini tuzib chiqdi. C dasturlash tilini mukammalashtirgan eng asosiy narsa bu – obyektga mo‘ljallangan dasturlashni olib kirgani hisoblanadi. Chunki dasturlashda, tez, qulay, tartibli va ixcham yozish uchun ob’yektga mo‘ljallangan dasturlash tillaridan foydalanish lozim bo‘ladi. Dastlabki C++ dasturlash tilidan foydalanganlar, bu albatta Bell Labs korxonasi xodimlari



```

    getline() : < char >
    getline() : < wchar_t >&
    getline() : < wchar_t >&
    getline() : basic_istream&
    getline() : void
    int inson::getparol()
    {
        parol=x;
        return parol;
    }
    void inson::chiqar()
    {
        cout<<" ism fami
              <<"\n kasbi: "<< gets();
        cout<<"\n yoshi: "<< getw();
        cout<<"\n maoshi: "<< get
    }
    int main()
}

```

C++ dasturlash tili odatda foydalanuvchilarga birinchi bo‘lib tavsiya etiladigan til sifatida qaraladi. C++ tilini oraliq til sifatida qarashimiz mumkin. U quyi darajada to‘g‘ridan to‘g‘ri qurilmalar uchun ham ishlay olsa, yuqori darajadagi til sifatida ham turli loyihalarda namoyon bo‘la oladi. C++ yuqori darajadagi dasturlash tili bo‘lib, u Bjarne Stroustrup tomonidan C tilining kengaytirilgan varianti sifatida yaratiladi. Bu tilning ustuvor tomoni unda Obyektga yo‘naltirilgan dasturlashning mavjud bo‘lganida deb qarash mumkin. C++ tili turli yo‘nalishdagi mahsulotlar yaralishida ahamiyatlari va mashhur bo‘lgan, jumladan video o‘yinlar, desktop dasturlari, serverlar, turli aloqa vositalarini misol sifatida ko‘rish mumkin. C++ da yaratilgan mashhur dasturlar va platformalar hisoblanadi.

- ❖ Windows;
- ❖ Facebook (server)
- ❖ Adobe Photoshop, Illustrator, Premiere Pro;
- ❖ Mozilla Firefox;
- ❖ MySQL server;
- ❖ AutoDeskt Maya;

C++ kabi komplyatsiya qiluvchi dasturlash tillarini yana bir afzalligi hosil bo‘lgan dastur kompyuterda komplyutorsiz ham bajarilaveradi. Interpretatsiya qiluvchi tillarda esa tayyor dasturni ishlatish uchun albatta mos interpretator dasturi talab qilinadi. C ++ universal dasturlash tili bo‘lib 束 xil darajadagi masalalar uchun yechim toppish mumkin. C ++ tilining yana bir axamiyali tomoni shundaki, u ANSI standarti talablariga to‘liq javob beradi to‘g‘irog‘i ANSI standarti talablari asosida yaratilgan. C ++ tilining asosiy tushunchalaridan biri bu klasslardir. Klass bu – foydalanuvchi tomonidan yaratilgan (ifodalangan) til. C ++ tilida C tilining deyarli barcha imkoniyatlari saqlangan. Bunga asosiy sabab C ++ tili yaratilayotgan bir paytda ko‘plab foydalanuvchilar C tilida dasturlar yaratgandi. Bunday tayyor xoldagi dasturlarga qayta o‘zgarish

kiritganda xam C ++ kompilyatori dastur matnidan xatoliklar topmaydi. Ya’ni dasturni xar ikkala tilda xam foydalanib tuzish mumkin.

The screenshot shows a code editor window for 'main.cpp'. The code defines a class 'talaba' with private member 'ism' and a public constructor taking a string parameter. A code completion tooltip is open at the end of the constructor call 'talaba(strin);'. The tooltip lists members of the 'string' class from the 'std' namespace, with 'string' highlighted. Other listed members include streambuf, streamoff, streampos, streamsizze, stringbuf, and stringstream.

```

3  using namespace std;
4  class talaba
5  {
6      private:
7          string ism;
8      public:
9          talaba(); // standart konstruktur
10         talaba(string);
11     };
12     talaba::talaba
13     {
14         cout<<"talaba";
15     }
16     int main()
17     {

```

C ++ – bu ob‘ektga yo’naltirilgan dasturlash tili. C++ dasturlash tilida hamma narsa uning xususiyatlari va usullari bilan bir qatorda sinflar va obyektlar bilan bog‘liq. Sinf – bu bizning dasturimizda foydalanishimiz mumkin bo‘lgan foydalanuvchi belgilaydigan ma'lumot turi va u obyekt tuzuvchisi yoki ob'ektlarni yaratish uchun "reja" sifatida ishlaydi. Bitta sinfning bir nechta ob'ektlarini yaratishingiz mumkin. Lekin bir klassga tegishli metodlar, boshqa klassdagi obyektlar uchun mavjud bo'lmasligi tabiiy. Misol uchun matnlar uchun mavjud metodlarni, butun yoki o'nli sonlarga qo'llab bo'lmaydi. C++ dagi sinflar C++ dagi sinflar-bu metodlar, xususiyatlар, hali mavjud bo'lмаган обьектларни тавсифловчи маҳумлик. Обьектлар - о‘зига хос xususiyatlар va metodlarga ega bo‘lgan mavhumlikning o‘ziga xos vakili. Bitta sinf asosida yaratilgan obyektlar ushbu sinfning namunalari deb nomlanadi. Ushbu obyektlar turli xil xattiharakatlarga, xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin, ammo baribir bir xil sinfning obyektlari bo‘ladi

Sinf komponentalari sodda holda tiplangan ma'lumotlar va funktsiyalardan iborat bo‘ladi. Figurali qavslarga olingan komponentalar ro‘yxati inf tanasi deb ataladi. Sinfga tegishli funktsiyalar komponenta-funktsiyalar yoki inf funktsiyalari deb ataladi. Sinf kompanenta o‘zgaruvchilari sifatida o‘zgaruvchilar, massivlar, ko‘rsatkichlar ishlatilishi mumkin. Elementlar ta’riflanganda initsializatsiya qilish mumkin emas. Buning sababi shuki inf uchun hotiradan joy ajratilmaydi. Kompanenta elementlariga kompanenta funktsiyalar orqali murojat qilinganda faqat nomlari ishlatiladi. Sinfdan tashqarida inf elementlariga emas obyekt elementlariga murojat qilish mumkin. Bu murojaat ikki hil bo‘lishi mumkindir. Obyekt-nomi;

element-nomi.

Obyktga-korsatgich-element nomi. Sinf elementlari infga tegishli funktsiyalarida ishlatilishidan oldin ta’riflangan bo‘lishi shart emas. Xuddi shunday bir funktsiyadan hali ta’rifi berilmagan ikkinchi funktsiyaga murojaat qilish mumkin. Komponentalarga murojaat huquqlari. Komponentalarga murojaat huquqi murojaat spetsifikatorlari yordamida boshqariladi.

Obyektga yo’naltirilgan dasturlashning qulayliklaridan biri bu klasslardan boshqa klass yaratish imkoniyati. Bizga kerak bo‘lgan yangi klass, avval yaratilgan boshqa klass bilan o‘xshashlik

joylari bo'lsa, biz bu klassdan voris klass yaratishimiz mumkin. Bunda asl klass - ota, yoki super klass deb ataladi. Super klassdan yaratilgan voris klass otaning barcha yoki tanlangan xususiyatlari va metodlarini meros olish bilan birga, o'ziga xos xususiyat va metodlariga ega bo'ladi. Bu spetsifikatorlar: Protected – himoyalangan; Private – hususiy; Public – umumiy; Himoyalangan komponentalardan sinflar ierarhiyasi qurilganda foydalaniladi. Oddiy holda Protected spetsifikatori Private spetsifikatoriga ekvivalentdir. Umumiy ya'ni Public tipidagi komponentalarga dasturning ixtiyoriy joyida murojaat qilinishi mumkin. Xususiy ya'ni Private tipidagi komponentalarga sinf tashqarisidan murojaat qilish mumkin emas. Agar sinflar Struct xizmatchi so'zi bilan kiritilgan bo'lsa, uning hamma komponentalari umumiy Public bo'ladi, lekin bu huquqni murojaat spetsifikatorlari yordamida o'zgartirish mumkin. Agar sinf Class hizmatchi so'zi orqali ta'riflangan bo'lsa, uning hamma komponentalari xususiy bo'ladi. Lekin bu huquqni murojaat spetsifikatorlari yordamida uzgartirish mumkindir.

The screenshot shows a C++ development environment with a code editor and a terminal window. The code editor contains the following C++ code:

```

2
3     using namespace std;
4     /// Mavzu: Satrlar bilan ishlash
5     int main()
6     {
7         string a;
8         getline(cin, a);
9         cout<<a[1]<<endl;
10        int x=a.size();
11        cout<<x<<endl;
12        cout<<a.substr(1, 5);
13        cout<<a;
14        return 0;
    
```

The terminal window displays the following output:

```

" D:\dasturlash c++\Satrlar bilan ishlash\bin\Debug\Satrlar bilan ishlash.exe"
salomlar barchaga
a
17
alomlsalomlar barchaga
Process returned 0 (0x0)   exe
Press any key to continue.
    
```

Ba'zida klassimiz xususiyatlari va ular bilan ishlaydigan metodlarga to'lib ketishi, bu esa o'z navbatida obyektga murojat qilishni qiyinlashitirishi mumkin. Shunday holatlarda ba'zi xususiyatlarni alohida klass ko'rinishida yozish va keyinchalik bu klassdan yaratilgan obyektni boshqa obyektning xususiyati sifatida foydalanish mumkin.

Pythonda hech qanday vazifani bajarmaydigan pass operatori mavjud. Bu operatordan bo'sh metodlar yaratishda foydalanish mumkin. Misol uchun siz klassingiz uchun muhim metodlarni bilasiz, lekin metod badani hali tayyor emas. Agar metod badanini bo'sh qoldirsangiz, Python **IndentationError** xatosini qaytaradi. Shunday xolatlarda, funksiya badaniga pass operatorini qo'yib ketishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. Madraximov Sh. C++ tilda programmalash asoslari. – Toshkent: 2009.
2. <https://python.sariq.dev/oop/30-vorislik-polimorfizm>
3. <https://programmer.uz/course/cpp-dasturlash-tili>
4. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/126/presentations/ty77pnmZ37WBb1O5VfwqWzKD0oiTQJ1xln4N2Efn.pdf>
5. <https://uzbekdevs.uz/darsliklar/cpp/cpp-da-sinflar-obektlar>

6. https://elibrary.namdu.uz/_dasturlash_tilida_massivlar_ustida_amallar_va_tenglamalar_siste_masini_gauss_usulida_yechish.
7. <https://www.google.com/search?>
8. <https://eduproger.uz/blog/dasturlash-asoslari-c/c-tilida-sinflar>